
SO'X TUMANI HOKIMINING TABRIGI



SO'X TUMANI HOKIMINING TABRIGI

Assalomu alaykum, muhtarama onaxonlar!

Hurmatli opa-singillar, **“Onalarga ehtirom festivali”** ishtirokchilari!

Avvalo, siz azizlarni bu kun bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Onalarni qadrlash, ularni ulug'lash hamda “Jannat onalar oyog'i ostida” degan tuyg'ularni usib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirish, mahallalardagi xotin-qizlarni umumiy insoniy va milliy, oilaviy qadriyatlar yuksak odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning ongi va qalbini g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, har tomonlama barkamol iqtidorli qizlarni aniqlash, rag'batlantirish va munosib taqdirlash, ayniqsa yosh avlod urtasida eng muqqaddas zot hisoblangan onalarga ehtirom degan g'oyalarni singdirish maqsadida **“Onalarga ehtirom festivali”** tashkil etildi.

Shuningdek mahallalarda istiqomat qilayotgan yosh kelin ayollarni, qizlarni, yigitlarni umumiyinsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik ruhida yuksak odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning ongi va qalbini g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, har tomonlama barkamol iqtidorli yoshlarni aniqlash va munosib taqdirlash hamda vatanga muhabbat tuyg'ularini kuchaytirish, yoshlarni mahalla fa'oliyatidagi ishtirokini kengaytirishga erishish bu boradagi tajribalarini keng ommalashtirishdan iborat.

Yoshlarni tarbiyasida Siz kabi mu'tabar, oqila ayollari ishtirokida turli ma'naviy ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollarni shuningdek nogironligi bor hamda kamta'minlangan oilalar holidan xabar olinmoqda.

Yoshi ulug' onaxonlarni e'zozlash maqsadida mahalladagi yoshlar bilan uch avlod uchrashuvlar kabi turli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Fursatdan foydalanib barchangizni yana bir bor chin qalbidan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Sayidbahrom Sayidmusayev - So'x tumani hokimi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-16 20:41:46